

[illegible]

1
2024

**FALSAFA va HUQUQ
ФИЛОСОФИЯ и ПРАВО
PHILOSOPHY and LAW**

МУНДАРИЖА:

Otamuratov S.	<i>Texnogen sivilizatsiya tizimida milliy manfaatlar.....</i>	4
Исламходжаев Х.С.	<i>Маъмурий-ҳуқуқий муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш усуллари.</i>	9
Muxamedjanova L.	<i>Jamiatni modernizatsiyalash va axloqiy qadriyatlarning falsafiy tasnifi.....</i>	13
Наврӯзова Г.Н.	<i>Баҳоуддин Нақибанд рубоийлари таснифи.....</i>	17
Xusanova X.	<i>Ijtimoiy himoya tizimining nazariy-metodologik asoslari.....</i>	23
Ibraximova D.S.	<i>Yuridik axloqning vujudga kelish tarixi.....</i>	27
G'aybullayev O.M	<i>O'zbek xalqi mentaliteti rivojlanishida estetik madaniyatning roli.....</i>	31
Иззетова Э.М.	<i>Социокультурная реальность постмодернизма в контексте философского дискурса.....</i>	36
To'raev B.	<i>Huquqiy davlatda huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiyaning o'rni.....</i>	41
Тилавов Ў.Ғ.	<i>Халқаро экологик муносабатларда толерантлик тамойилининг сиёсий, ҳуқуқий асослари ва маънавий-ахлоқий нормалари бирлиги.....</i>	44
To'xtayev X.P.	<i>O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida aksiologiya qonunlarining amalga oshish jarayoni.....</i>	50
Egamberdiyeva N.M.	<i>O'zbek oilasida muomala madaniyati axloqiy qadriyatlar mezonlari sifatida</i>	56
Азимов Ҳ.И.	<i>Янгиланган Конституциямизда инсон қадр-қиммати ва унинг қонуний ҳуқуқлари энг олий қадрият.....</i>	60
Сабирова У.Ф.,	<i>Эффективность взаимодействия вузов с работодателями в сфере профессионального образования.....</i>	64
Ганиева М. Ж.	<i>.....</i>	64
Abduhamidov M.A.	<i>Aqidaviy oyatlar sharhlarining qiyosiy tahlili.....</i>	68
Қаюмов З.	<i>Ҳуқуқ тизимини либераллаштирилишида юридик жавобгарликдан озод қилишнинг мезонлари ва самарадорлик кўрсаткичлари.....</i>	73
Эрийгитова Л.Қ.	<i>Кексайиш ва унда учрайдиган касалликлар профилактикасининг социологик таҳлили.....</i>	78
Усмонов Б.А.	<i>«Импостор синдроми ёхуд фирибгарликнинг психологик таҳлили».....</i>	82
Tashmetov T.X.	<i>Yoshlar ongining transformatsiyalanishuvi jarayonlari.....</i>	87
Алексеева В.С.	<i>Социальное обеспечение и социальные услуги в системе социальной защиты Узбекистана.....</i>	91
Razzoqov Q.	<i>Chishtiya tariqatining shakllanish evolyutsiyasi.....</i>	95
Hamroyev S.S.	<i>Milliy davlat suverenitetini mustahkamlashning ma'naviy asoslari.....</i>	101
Bozorova G.M.	<i>XX asr G'arb falsafasida ong muammosi.....</i>	105
Kadirova X.B.	<i>Mediasavodxonlik medita'limning uzviy bog'liq qismidir.....</i>	110
Azamova M.	<i>Yangi O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivoji.....</i>	115
Мамадиева Н.Х.	<i>Жадидлар фаолиятида хотин-қизлар таълимига эътибор.....</i>	120
Аллаяров О.Э.	<i>Интернетнинг ёшлар маънавий-ахлоқий қиёфасига таъсири.....</i>	124
Умарова Р	<i>Берунийнинг илмий меросида натурфалсафий гоялар.....</i>	130

Джураев А.М.,	Факторы повышения политического и правового сознания	
Джураев А.А.	молодежи.....	134
Egamberdiyeva A.	Jamiatda altruizm rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy masalalari.....	139
Norkulov O.N.	Insonning huquqiy va axloqiy madaniyati shakllanishida migratsiya omili.....	143
Yuldashev O‘.M.	Manipulyativ siyosiy texnologiyalarga doir zamonaviy ilmiy yondashuvlar	147
G‘aybullayeva L.S.	Jamiatda yoshlar falsafiy tafakkurini oshirishda mahallaning o‘rni.....	151
Avlakulov A.M.	Ehtiyojlarning texnogen sivilizatsiyani shakllantirishdagi o‘rni.....	155
Сайдазимов К.Т.	Роль оценок и норм в процессе воспитания и обучения.....	160
Абдукаримова Г.	Кексайиш жараёнининг ижтимоий омиллари.....	165
Raxmonberdiyev I.I.	Samyuel F. Hantington sivilizatsiyalar to‘qnashuvi paradigmasi ijtimoiy-falsafiy tahlili.....	170
Saburova J.A.	Milliy manfaatlar nazariyasi va muqobil yondashuv: ekologik realism.....	178
Abdusattarova S.F.	Ayollar bandligini modellashtirish: xalqaro mehnat tashkilotining global tendensiyalari va harakatlari.....	184
Атавуллаев М.А.	Ижтимоий давлат ва унинг асосий функциялари.....	189
Аманов Ғ.	Янги Ўзбекистон маънавий маконида шахс ижтимоий онги ва дунёқараши шаклланишида таълим-тарбия аҳамити.....	193
Ражабов Ж.Н.	Жамият трансформацияси жараёни ва унинг назоратсизлиги.....	198
Раҳимова В. И.,	Бугунги ёшлар ва виртуал борлиқ масаласи.....	203
Темирова С.В.		
Примов Б.А.	Ахборотлашган даврда оммавий ахборот воситаларининг ўрни.....	208
Toshboboyev M.J.	Innovatsion texnologiyalar va ta’lim uyg’unligi.....	212
Хаидаров Р.Э.	Алишер Навоийнинг инсон ҳақидаги қарашларига антропологик тавсиф (“Ҳайрат ул-Аброр” достони асосида).....	216
Тургунов А.Т.	Ўзбекистонда медиа маданиятни ривожлантиришида ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг замонавий тенденциялари.....	220
Соқиев Х.В.	Ахборотлашган жамиятда инсон омили.....	226

**JAMIYATDA YOSHLAR FALSAFIY TAFAKKURINI OSHIRISHDA
MAHALLANING O'RNI****L.S. G'aybullayeva -**
SamDChTI tadqiqotchisi 10.24412/2181-7294-2024-1-151-154

Har bir jamiyat o'zining muayyan taraqqiyot yo'lini belgilab olishida taraxan rivojlanib kelgan ijtimoiy institutlarga tayanadi. Mana shundan institut sifatida bir necha asrlardan buyon xalqimizning hayotida chuqur iz qoldirgan mahalla tizimi o'zining noyobligi bilan ajralib turadi. Mahallada yoshlar faolligini oshirishda kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish, islohotlar taqdiri va samaradorligi qanday intellektual kuchlarga bog'liqligini chuqur o'rganish lozim. Chunki har tomonlama bilimli, ma'naviyatli, barkamol avlodni tarbiyalash davlatimiz faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib kelmoqda. Keyingi yillarda ilm-fanda yoshlar faolligini oshirishning nazariy-fundamental, amaliy-metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, mahallada yoshlar faolligini oshirishda, ma'naviy-intellektual qadriyatlar tizimini yuksaltirishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, ularning faol harakat komponentlari klassifikatsiyasini ishlab chiqishga doir ilmiy izlanishlar shular jumlasidandir. Shu bilan birga, milliy manfaatlar tizimidan kelib chiqqan holda, yoshlar faolligini yuksaltirishning xalqaro standartlarini joriy etish hamda yoshlar hayotiy faoliyatining sifat ko'rsatkichlarini belgilash darajasining falsafiy jihatlarini tadqiq qilish zaruriyatini saqlab qolmoqda[1. 7].

Mamlakatimiz mahallalarida xalqning boy intellektual-madaniy merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida yoshlar faolligini oshirish, ularning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini yuksaltirish borasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Yoshlarga doir faolliklarni hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettirish, nafaqat davom ettirish, balki buni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'tarishimiz zarur. Barcha sohalarida yoshlarning o'z mustaqil fikriga ega bo'lishini ta'minlash, zamonaviy bilimlarni har tomonlama yuksak intellektual salohiyat orqali o'zlashtirishi, dunyoda o'z tengdoshlari qatorida birinchilardan bo'lishi, bugungi yorug' kunlarda baxtli yashashi uchun davlatning bor kuch va imkoniyatlari safarbar etildi. Jamiyatda yoshlar uchun keng imkoniyatlarni yaratish, barcha sohalarida faolligini ko'tarish va falsafiy dunyoqarashini boyitadigan usul-vositalar hamda mexanizmlarni takomillashtirish kundan-kunga dolzarblashib bormoqda. Shuning uchun yoshlarning falsafiy dunyoqarashini milliy qadriyatlarga uyg'un rivojlantirish, ma'nan etuk bo'lishlari uchun shart-sharoitlarni qulay ma'naviy muhit bilan bog'lash zarur. Xususan, "yunon faylasufi Suqrot jamiyatning eng katta muammosi yoshlarning faolligi va ularning axloqida jamiyat taraqqiyotiga dahldorlik tuyg'usini tarbiyalashdan iborat, deb ta'kidlagan. Arastuning baxt-saodat keltiruvchi insoniy xislatlarni o'zida yaxlit holda aks ettiruvchi aqliy fazilatlar yaxshi xulq-odatlardir, degan g'oyasi yoshlarning axloqiy tarbiyasida bilimning qadriyatli mo'ljallarini to'g'ri belgilashni taqozo etadi"[2. 173].

Bugun jamiyatda ta'lim tizimini isloh qilish asosida yoshlar o'rtasida ijtimoiy faollikni tolerantlik bilan bog'lab rivojlantirish asosiy masalalardan biriga aylandi. Ularning ma'naviy olamini boyitish, fikrlash tarzini zamonaviy ilm-fan bilan bog'lash va hatti-harakatlarida etuk komil insonga xos fazlatlarni shakllantirish dolzarb masalaga aslandi. Ko'pincha yoshlar ob'ektiv tarzda kundalik turmush tarzida boshqalarga o'z fikrini o'tkazishga intiladi va o'zlarining bilimdon ekanliklarini namoyish etishga urinadilar. Lekin ularning kamtarin faolligini tashkil etish, bag'rikenglikka xos milliy ruhiyatini shakllantirish ta'limning, qolaversa mahallaning vazifasiga aylanishi darkor. Mahallaning jamiyatdagi rolini oshirishda yoshlarning faol bo'lishini ta'minlash, yurtimizdagi inson huquqlariga doir falsafiy, siyosiy huquqiy bilimlarini kuchaytirish zarurdir. Chunki yangi O'zbekistonda dunyoning yoshlarga doir mavjud xalqaro konvensiyalarini ratifikatsiya qilish, yoshlar faolligini amalga oshirishni ta'minlaydigan qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilindi. Taraqqiyot strategiyasining ettita ustuvor yo'nalishlariga milliy tafakkurni mahallalarda keng targ'ib qilish, yoshlarning falsafiy tafakkurini kengaytirishda mahallaning rolini oshirish ustuvor vazifaga aylandi. "Jamiyatimizdagi barcha tabaqa

kishilari va alohida shaxslarga faollik va bag'rikenglikning mohiyatini singdirish va o'zlashtirish ishlariga yana ham kengroq imkoniyatlar yaratilib, amaliyotga joriy etilayotgani diqqatga sazavordir"[3. 14]. Har bir o'sib kelayotgan yosh avlodning qalbida o'zi tug'ilib o'sgan maskan mahalla, uning o'tmishiga nisbatan falsafiy qarashni shakllantirish, ajdodlarining ma'naviyatini chuqur o'rganish, yuksak axloqiy fazilatlarni voqelikda rolini anglash qonunlarimizda mustahkamlab qo'yildi. Yoshlarning axloqiy fazilatlarini mahalla bilan bog'liq holda tarbiyalash, birinchi galda milliy o'zligini anglashga doir qarashlarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. "Bugun hayotimizning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har tamonlama ta'minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda. Bu jarayon esa insonning o'zligini bilishga bo'lgan intilish davomida to'plagan kundalik va ilmiy darajada shakllangan nazariy bilimlar va hayotiy-amaliy tajribalari bilan bog'liqdir"[1. 7]. Yoshlarning butun borliqqa munosabatini mahallaning mavjud ilmiy dunyoqarashi negizida shakllantirish, ularning faoliyatini mazmun-mohiyatini amaliy jihatlarini boyitish darkor.

Bugungi kunda yoshlarning falsafiy tafakkurini mahallaning tarixini anglash orqali millat hayotini anglashga o'rgatish, insonning o'z mohiyatini anglash qobiliyati shakllantirish muhim sanaladi. Agar yoshlar uchun millat miqyosida ushbu qobiliyatining shakllanishiga, xalqning o'z o'tmishini bilishiga, undan saboq olishiga keng imkoniyatlar yaratilsa, bunday xalq, millat yoki elatning istiqboli ham buyuk bo'ladi. Muammoning ushbu jihati bilan bog'liq ayrim masalalar, xususan, olimlarning ilmiy ishlari mahallani yoshlar tarixiy xotirasini rivojlanishiga bog'liq holda o'rganilsa ma'naviy-ma'rifiy omillar ta'siri kuchayadi. Mahallada yoshlar faolligi nafaqat shaxsning jamiyat va jamoa ishlaridagi faol ishtirokchisi, balki ma'lum darajada va axloqiy o'zlikni anglash belgisi sanaladi. Yoshlarning faol qatlamga aylanishi fan va falsafaning ijobiy taraqqiyotini ta'minlashda bilim, iqtisod va axloq yo'nalishida pragmatizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Yoshlarda faollikning u yoki bu shaklining ustunligi yoki haddan tashqari zaiflashishi natijasida yuzaga kelgan yangiliklar mahallaga ham ta'sir qiladi. Mahaladagi ma'naviy innovasiyalar orqali yoshlar o'z yo'lini nazoratini, senzurani, ta'qiqlarni, qonunchilikdagi to'siqlarni anglab boradi. Agar innovatsiya muvaffaqiyatga erishsa shoshilinch ehtiyojni yaratish, keyin hayotni o'zgartirish jarayoni boshlanadi. Mahallada yoshlarning faollikdan foydalanib, falsafiy tafakkurini mustaqil, o'zini o'zi ta'minlaydigan tizim sifatida o'rganish muhimdir. Yurtimizda mahallaning jamoatchilikka xos sinkretik holati ming yillardan beri mavjud bo'lib, o'tgan davrda yoshlarning faol bo'lishiga olib keldi. Doimo faollik, jamiyatni optimallashtirishda yangisini shakllantirish uchun o'zaro ta'sir kuchiga qodir sinkretizmga tayangan.

Bu borada mahallalarning rolini o'rganish bo'yicha falsafa va fan falsafasi tarixida xilma-xil metodika ishlab chiqilib, yoshlarning faolligini aniqlashga imkon beruvchi dialektik yondashuvlar shakllangan. Ushbu yondashuvlarning uslubiy sintezi tadqiqot zaruriyatiga, jamoatchilik asosida mahallalarda yoshlar faolligini ochiq tizim sifatida o'z-o'zini ta'minlaydigan ichki muhit bilan insonning ma'naviy va ijodiy faoliyati orqali o'z imkoniyatlarini amalga oshirishga olib keladi. Bunda mantiq yoshlar faolligi shakllarining o'zaro ta'sirini o'rganishda analitik metodologiyadan sintetik metodologiyaga o'tishga asoslangan bo'lishi kerak. Mahallalarda yoshlar faolligi va konsepsiyasi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, shaxsga - jamiyatning oddiy a'zosiga, undagi sinfiy tabaqalanishdan boshlab va butun jamiyat bilan millatga, ayniqsa jamiyada pragmatizm qay darajada rivojlanganiga bog'liq. Yoshlar faolligini ilmiy kategoriya sifatida o'rganish, shuningdek, aholining turli guruhlar faolligining xususiyatlarini o'rganish gumanitar va sohani rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Jamiyatning o'zgarishi bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi, ular orasida mahalla bilan muloqotni kengaytirish orqali davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish muhim rol o'ynaydi. Gap barcha ahamiyatga ega kuchlarning, birinchi navbatda, hokimiyat va jamiyatning samarali hamkorligi haqida bormoqda. Biroq fikr-mulohazaga asoslangan keng qamrovli muloqot tizimi mavjud emasligi, buning natijasida islohotlar jamiyat talablariga, yoshlarni aksariyat qismining ehtiyoj va mentalitetiga javob bermayotganini tez-tez kuzatamiz. Bizning fikrimizcha, zamonaviy o'zgarishlar sharoitida kommunikatsiyani vujudga keltirish yo'llaridan biri yoshlarning ommaviy faolligini o'rganish bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda yoshlar nafaqat quvonch va baxt manbai, balki bunyodkorlik, Vatanni obodonlashtirish, turli guruhlar va qatlamlarning yordami va hamkorligi sohasidagi ishlarining faol qatlami, mahallalarning kelajagi ekanligini chuqur anglash muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda, iqtisodiy va madaniy islohotlarni samaradorligi mamlakatimiz yoshlarining bilimi va ijodiy salohiyatiga tayanadi. Chunki hozirgi sharoitda yoshlar zamonaviy dunyoning, iqtisodiy va voqeliklariga tezroq va yaxshiroq moslasha oladilar va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mahallalarda hal qiluvchi kuchga egadirlar. Yoshlar o'z millatining qadimiy tarixiy va madaniy an'alarining davomchisi, buyuk tashabbuslarning manbai, yangi g'oyalarning manbai, yangi O'zbekistonning bugungi va kelajak taqdirining yaratuvchisidir. Yangi O'zbekistonda yoshlar faolligini yuksaltirish maqsadida milliy iqtisodiy rivojlanishning sifat jihatlari alohida e'tirbor qaratish, mahallalarda yoshlar salohiyatini mustahkamlash, yosh avlodni zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalardan samarali foydalangan ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish muhimdir. Davlatning yoshlarni mahallalarda faol bo'lishiga doir qarashlardan kelib chiqqan holda ularning falsafiy tafakkur tarzini yanada oshirish, yoshlar tadbirkorligi, biznesini qo'llab-quvvatlash va investitsiya tizimini takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda yoshlar faolligiga e'tirbor qaratish muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz tomonidan 2024 yilning "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" dnb e'lon qilishida ham o'zgacha ma'no, shukuh va mahallarga alohida e'tirborning mujassam bo'lganligini anglash qiyin emas.

Mahallada yoshlar ulg'ayar ekan yangiliklarga katta qiziqish bildiradi, shuningdek, o'z fikrini omma oldida erkin bildirib olishini his qiladi. Ular jamoatchilik fikriga asoslanib, mahalla miqyosdagi qarorlar qabul qilish va faoliyatdan chetda qolganliklar haqida fikrini teran ifdalay oladi. Shuning uchun mahallalarda yoshlar va keksa avlodning o'zaro muloqotini falsafiy mushohadalar bilan boyitish, ular uchun keksalarning hayotiy tajribalariga jiddiy qiziqishni uyg'otish muhim ahamiyatga ega. Mahallada eng zaif yoshlarga e'tirbor qaratgan holda, ularni qo'llab-quvvatlash va ijobiy motivatsiyani ta'minlash, bunday yoshlar bilan ishlashda individual yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish darkor. Mahallada yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, eng zaif qatlamlarga e'tirbor qaratgan holda, yoshlar bilan ishlash amaliyotini tizimlashtirish, oila va maktab darajasidagi qarorlarning ob'ekti emas, balki sub'ektlari sifatida yoshlarga ijobiy motivatsiyani kuchaytirish, maktabdan ishga muvaffaqiyatli o'tishda barcha yoshlarning fundamental hayotiy, texnik, raqamli, innovasion va tadbirkorlik ko'nikmalariga ega bo'lish imkoniyatlarini kengaytirish lozim [4. 185].

Mahallalarda yoshlar o'rtasida muloqot qilish uchun platformalar yaratish, ularning raqamlashtirishdagi faol ishtirokini ta'minlash muhimdir. Chunki iqtisodiy hayotda faol ishtirok etish, ma'naviy jarayonlarni amalga oshirishda yangi O'zbekistonda yoshlar faolligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Yoshlar muammolarini hal qilishda yangi chora-tadbirlarni ishlab chiqish, bu sohada qarorlar qabul qilishda yoshlarning haqiqiy ehtiyojlarini o'rganish asosiy jarayon bo'lib qolmoqda. Bu mahallalarda yoshlar mavqeini yuksaltirish, ularga bilim va qobiliyatini rivojlantirish uchun imkon berish, barqaror iqtisodiy jihatdan qulay muhitni shakllantirish, o'z mamlakatida faol fuqaro sifatida to'liq ishtirokini ta'minlash imkonini beradi. Dunyo bo'ylab turli sur'atlarda va turli ustuvorliklarga ega bo'lgan yosh uchun tobora murakkab va ko'p qirrali innovatsiyalar dunyosi shakllandi. Mahalladagi yoshlarning aniq tabiati, ba'zilarining o'ziga xos muammolarga duch kelishi, kamsitish va chetlanishlarga duchor bo'lishi hamda ularning huquqlari etarli darajada himoya qilinmaslik holatlari ham yo'q emas. Yoshlar qanday huquqlarni qadrlashi, ular qanday huquqlardan foydalana olmasligi va buning asosiy sabablari nimada bo'lishi mumkinligi xolis ko'rib chiqiladi.

Bugungi kunda yoshlarning ko'pchiligi o'z mahallaridagi mavjud ta'lim infratuzilmasidan qoniqish hosil qilgan bo'lsa-da, ular o'zlarining kelgusi hayotiga ta'lim muhiti ijobiy turtki bo'lishini, amaliyotga yo'naltirilganligi yaxshi ta'lim bo'lishini xohlaydilar. Ular hamma narsani geografik tanish bo'lgan muhitda yashash orvali qulay his qilishadi. Ko'pchilik bu tabiiy muhit ularning shaxsiy imidjining bir qismi ekanligini va o'zlari haqida shaxsiy xabardorlik uchun ekzistensial ekanligini tushunadi. Yangi O'zbekistonning imkoniyatlari ta'sirida yoshlar qishloq ham, shahar ham yashash uchun yaxshi joy bo'lishi mumkinligi haqida umumiy fikrga kelishdi. Yoshlar qishloqda istiqomat qilayotgan kishi shaxsiy intilishlaridan ko'ra, yaqin qo'shnichilik munosabatlari aholiga kerak bo'lganda yordam olishni osonlashtirishini anglab bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, mahallalarda yoshlar faolligi bilan bog‘liq va xatti-harakatlarni tartibga solish, falsafiy tafakkurni shakllantirish jarayonida ularni ilmiy faoliyatga jalb qilish katta ahamiyatga ega, faollik ularni tartibga soluvchisi sifatida ishlaydi. Yoshlar faolligi, bir tomondan, jamiyat faoliyatida fuqarolarning faolligi yo‘nalishlarini belgilovchi omil sifatida namoyon bo‘lsa, boshqa tomondan, sub’ektlarning faolligi ularning faoliyatida namoyon bo‘ladi, ular buni nazorat qiladilar. Shu munosabat bilan mahallalarda yoshlar faolligi masalasi - bu jarayonning xususiyatlarini, falsafiy tafakkurning kognitiv komponenti sifatida rivojlanishini ifodalaydi. Jamiyatning taraqqiyoti mahallalar obodligi, yoshlarning faol ijtimoiy ongi va yuksak falsafiy dunyoqarashi asosida yangilanib boradi.

АДАБИЁТЛАР:

1. Мирзиёев Ш.М. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир -Тошкент: Ўзбекистон, 2018
2. Аристотель. Никомахова этика. Сочинения. Том. 4. -Москва: “Мысль”, 1983.
3. Мирзиёев Ш.М. Еркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо етамиз. -Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
4. Қўчқоров В. Ёшларни тадбиркорликка жалб қилишнинг ғоявий-асослари. Академия. - Тошкент: 2014.

REZYUME:

Ushbu maqolada mahallada yoshlarni faolligini oshirishda falsafiy tafakkurning o‘rni va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bugungi kunda ta‘lim tizimida, yoshlar faolligi institutlarda o‘ta dolzarbligi va bu ta‘lim jarayonining barcha subektlaridan alohida e‘tiborni talab qilinayotgani haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: faollik, yoshlar, mahalla, falsafiy tafakkur, qadriyatlar, axloqiy tarbiya, shaxs, dunyoqarash, yangilik, talim, intellektuallik.

РЕЗЮМЕ:

В статье раскрывается роль философского мышления в повышении активности молодёжи в махалле и о том, что поддержка молодёжи очень актуальна в системе образования, активности молодёжи в учреждениях сегодня и требует особого внимания. от всех субъектов этого образовательного процесса.

Ключевые слова: деятельность, молодежь, соседство, философское мышление, ценности, нравственное воспитание, личность, мировоззрение, новаторство, образование, интеллектуальность.

RESUME:

In this article, it is written about the role of philosophical thinking in increasing the activity of young people in the neighborhood and the fact that supporting young people is very relevant in the educational system, youth activity in institutions today, and that special attention is required from all subjects of this educational process.

Key words: activity, youth, neighborhood, philosophical thinking, values, moral education, personality, outlook, innovation, education, intellectuality.